



# ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ

## THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT

### ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚҚИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-11, (November) 2024  
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

**ABRALOVA Zabarjat Djurayevna**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
katta o'qituvchisi*

**MUXITDINOVA Sarvinoz Alisher qizi**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
talabasi*

#### INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARING O'RNI

##### ANNOTATSIYA

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun interfaol metodlardan foydalanish va shu orqali ta'lim sifatini samarali oshirish haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab kuchaymoqda. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarda darslarni qiziqarli metodlar orqali o'tish lozimligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, metod, metodika, ta'lim, tarbiya, kreativ.

##### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается использование интерактивных методов для учащихся общеобразовательных школ и тем самым эффективное повышение качества образования. В настоящее время растет спрос на изучение иностранных языков, особенно английского. Именно поэтому в общеобразовательных школах дается информация о необходимости прохождения уроков интересными методами.

**Ключевые слова:** знание, умение, навыки, метод, методика, образование, воспитание, творчество.

##### ANNOTATION

The article discusses the use of interactive methods for students in comprehensive schools and thus effectively improving the quality of education. Currently, the demand for learning foreign languages, especially English, is growing. That is why comprehensive schools provide information on the need to conduct lessons using interesting methods.

**Keywords:** knowledge, skill, method, methodology, education, upbringing, creative.

Interfaol o'qitish usullarining rivojlanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi, ammo ularning keng qo'llanilishi so'nggi o'n yilliklarda sodir bo'ldi. Texnologiya va psixologiya taraqqiyoti bilan olimlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlay boshladilar. XX asrda nazariyotchilar Jon Dyui va Jan Piaget tajriba va jarayondagi faol o'zaro ta'sirning muhimligini ta'kidlab, interaktiv ta'limga asos soldi.

Keyingi yillarda kompyuterlar va internetning paydo bo'lishi bilan bu usullar rivojlanish uchun yangi turtki oldi. Ta'lim jarayonida treninglarni o'tkazish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni ta'lim sohasidagi ajoyib yo'nalishga aylantiradi:

- faol o‘zaro ta’sir: talabalar nafaqat ma’ruzalarni tinglaydilar, balki muhokamalar va loyihalarda faol ishtirok etadilar.

- amaliyot: bilimlar amaliyotda qo‘llaniladi, bu uning o‘zlashtirilishi va yodlanishini yaxshilaydi;

- ko‘nikmalarni rivojlantirish: o‘quvchilar bilim olishdan tashqari, muloqot ko‘nikmalarni rivojlantiradilar, jamoada ishlashni, muammolarni hal qilishni o‘rganadilar;

- texnologiya integratsiyasi: multimedia va veb-saytlardan foydalanish o‘rganishni yanada qiziqarli va qulayroq qiladi [1].

“Chet tilini o‘qitish mazmuni o‘quvchilar o‘zlashtirishlari xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tanlanadi, taqsimlanadi, tasniflanadi va o‘rganish uchun taqdim etiladi. Tanlash, tasnif, taqsimot va taqdimot bosqichlari muayyan metodik mezonlar yordamida amalga oshiriladi.” Ingliz tili darsini o‘tayotganda nafaqat, ingliz tili balki, boshqa fanlarda ham qo‘llaniladigan metodlarning o‘rni bor. Ularning har birini tahlil qilish talab etiladi va bu metodlar I.V Raxmanov tomonidan o‘rganilgan [2].

Tarjima metodlari orasida eng ko‘p tarqalganlari “grammatika-tarjima metodi” va “matn-tarjima metodi” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Birinchisining namoyandalari so‘z va gap tarjimasini grammatika qoidalarini o‘rgatish uchun tatbiq etsalar, ikkinchisining tarafdorlari esa matni o‘qish va uning mazmunini tushinishda tarjimadan foydalanishni maqsad qilib olishgan. Ikkala tarjima metodini qo‘llashdan faqat ta’limiy maqsad ko‘zlangan. O‘z davrining tilshunoslik ma’lumotlariga asoslanib, chet tilini o‘qitish metodlari ishlab chiqilgan. Ayrim muallimlar hozirgacha tarjima metodlari usullaridan noo‘rin foydalanishmoqda. Masalan, matni og‘zaki tarjima qilish g‘ayrimetodik usuldir. Matnning ayrim jumalari yoki bir-ikki bo‘lagini muayyan maqsadda tajjima qilish man etilmaydi. Lug‘atdan foydalanib, yangi so‘zlarning ma’nolarini ochish maqsadida tarjima qilishga mo‘ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin. Bu yerda matni tarjima qilishdan ko‘zlanadigan maqsad lug‘atdan foydalanishni o‘rgatishdir. Ingliz tili darsida qo‘llaniladigan metodlar quyidagi talablarga mos kelishi kerak;

- o‘quvchilarning qiziqishlari, xohishlaridan kelib chiqqan holda metod tanlash;

- qo‘llaniladigan metodlar hozirgi kunga mos zamonaviy, samarali metod bo‘lishi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chet tilini o‘qitish quyidagi imkoniyatlamini yaratadi:

1. Kelajak kasbiy faoliyatlariga puxta nazariy zamin tayyorlaydi.

2. Ta’limning zamonaviy metodlari, tashkiliy formalari va vositalari bilan atroflicha tanishtiradi.

3. Talabalarining olgan metodik bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llay olishlari uchun ko‘nikma va malakalar hosil qiladi.

4. Barcha fanlardan o‘zlashtirgan nazariy bilim va amaliy malakalarini maktab ta’lim-tarbiya ishida ijodiy tatbiq etishga ko‘maklashadi.

Chet tilini o‘qitish metodi- fan sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot metodlari bilan ish ko‘radi. O‘qituvchining ijodiy ishlashida nafaqat fan yutuqlari va ilg‘or ish tajribalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o‘quv jarayonida mustaqil ilmiy izlanishi ham zaruriy shartlardan biridir. Mustaqil tadqiqot amaldagi ilmiy- tekshirish metodlari yordamida o‘tkazilishi mumkin. Chet tilini o‘qitishdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va yoyishdan ko‘zlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishga qaratiladi.

Ilg‘or ish tajribasi umumiy tarzda (chet til o‘qitish tajribasi) yoki ayrim kichik soha (mas. dars boshlanishida til muhitini yaratish, murakkab grammatik hodisani amaliy o‘rgatish kabi)larni analiz-sintez metodi yordamida tadqiq qilishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tiliga bo‘lgan talab yuqori bo‘lganidek, o‘rganuvchilar soni ham yuqori. Shunday ekan, hozirgi zamonga mos kreativ, qiziqarli metodlar qo‘llash orqali tilni yanada tushunarli qilib yetkazib berish uchun ham barcha shart-sharoitlar yetarli. Metodlar ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishga ko‘maklashadigan asosiy omildir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Кашлев, С.С. Интерактивные методы обучения: учеб.-метод. пособие / С.С.Кашлев. – 2-е изд. – Минск: тетрасистемс, 2013. – 224 с
2. Интерактивные методы, формы и средства обучения (методические рекомендации) [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://interaktiv.pdf> (дата обращения: 19.09.2021). Iteti-v3.html.page=2